

## STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDOSHUV

*Sharipov G`iyosjon Nuriddin o`g`li*

*Chirchiq oliy tank qo`mondonlik - muhandislik bilim yurti*

*“Metrologiya, standartlashtirish va o`zaro almashinuvchanlik” fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion faoliyatda standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini joriy etish usullari va yo`llari, hamda uning joriy etishda ko`plab zamonaviy ishlanmalarga, ishlash samaradorligiga, ijobiy o`zgarishlar ko`zda tutilgan. Innovatsion faoliyatda standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimining keng yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** standartlashtirish, sertifikatlashtirish, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, mahsulot.

Bugungi kunda standartlashtirish va sertifikatlashtirish barcha soxalar va tarmoqlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki u texnik yechimlarni bir – biriga bag`ishlaydi va faoliyatning tarmoqlararo hamkorligini va ishlab chiqarishga yuqori texnologik texnologiyalarni samarali joriy etishni taminlaydi. Standartlar mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar etibor qaratishlari kerak bo`lgan darajani belgilaydi. 50-yillarning o`rtalariga kelib nazoratning statistik usullarini joriy etish sohasida va nazoratning barcha sohasida muhim muvaffaqiyatlarga erishildi, lekin bunda bir qator kamchiliklar aniqlandi: standartlashtirish tamoyillari ishlab chiqarishda rasman amalga oshirilardi; ishlab chiqarish sohasida nazoratning ilg`or usullarini va statistik usullarini joriy etishga kuchli qarshilik mavjud edi, xususan firmalarning rahbarlari mahsulot sifatini nazorat qilish masalalariga juda kam e`tibor berar edilar. Shu tariqa asta sekinlik bilan mahsulot sifatiga standartlash va sertifikatlashtirish tushunchalariga etibor qaratila boshlandi. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish hozirgi paytga yetib kelguncha ko`plab bosqichlar asosida mukammalishib keldi va hozirgi davrga kelib esa innovatsion yangiliklar bilan yana ham mustahkamlandi.

**Standartlashtirish** — mavjud yoki bolajak masalalarga nisbatan umuman va ko`p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblash tirishga yo`l o`laltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat (ISO/IEC GUID2:1996 ga binoan). O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tishi mamlakat firmalari, korxonalar, tashkilot va idoralar faoliyatining nafaqat ichki, balki tashqi bozorda yangi sharoitlarini belgiladi. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya bunday faoliyat sharoitlariga to'liq mos tushadi. Standartlashtirish

bo'yicha faoliyat juda dinamik, u jamiyat hayotining turli jabhalarida, ayniqsa iqtisodiyotida, ro'y berayotgan

o'zgarishlarga doim mos keladi, standartlar milliy ishlab chiqarish orqada qolishiga emas, balki rivojlanish tendensiyalarini oldindan sezib, milliy ishlab chiqarish rivojlanishiga ko'maklashishi shart. Standartlashtirish - bu iste'molchi maqbul narxga kerakli sifatidagi tovarlarni xarid qilishi huquqi hamda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini ta'minlovchi majburiy hamda tavsiya etilayotgan talab, norma, qoida, tavsiflarni ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat.

**Sertifikatlashtirish** - mahsulot mahum talablar. aniq standartlar yoki texnikaviy shartlarga mosligini hujjat bilan tasdiqlashdir. Mahsulotni sertifikatlashtirish mahsulot mahum standartlar yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy hujjatlarga mosligini sertifikat orqli tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan chora-tadbirlar (harakatlar) majmuasidir.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasining ta'rifini standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkiloti (ISO - International Organization for Standardization) Kengashining maxsus QoMnitasi tomonidan ishlab chiqilgan Sertifikatlashtirish (muvofiqlikni sertifikatlashtirish)mahsulotni, texnologik jarayon yoki xizmatlarni sertifikatlashtirishda uchinchi taraf qatnashishini nazarda tutadigan umumiy atamadir (birinchi tomon - ishlab chiqaruvchi, ikkinchi tomon - iste'molchi). ISO tomonidan muvofiqlikmng uch turi joriy qilingan :

- muvofiqlik haqida bayonot;
- muvofiqlikni attestatlash,
- muvofiqlikni sertifikatlashtirish.

**Innovatsiyalar** – bu mahsulot sifatini yaxshilash, uning turlarini kengaytirish, yangi ishlab chiqarish sxemalari, boshqaruv yondashuvlari va ish sharoitlarini yaratish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulot va xizmatlarni yangi bozorlarga targ'ib qilish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradigan tizimli o'zgarishlar.

Standartlashtirish va innovatsiyalar bo'yicha taniqli nemis mutahasisi **K.Blindning** fikricha: "Standart va patentlar texnologik taraqqiyotining eng muhim ko'rsatgichlari, axborot va bilimga asoslangan zamonaviy iqtisodiyot o'sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Biroq patentlar bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud texnologiyalardan foydalanishni cheklash, xalqaro standartlar texnologiyani global miqyosda foydalanishni maqsad qilgan" Har qanday ishlab chiqarilgan mahsulot ya'ni bu mashina mexanizimlaridan tortib oziq ovqat mahsulotlari bo'ladimi, shu jumladan qurulish xom ashyolarini ham belgilangan standartlar asosida yangicha zamonaviy laboratoriyalardan foydalangan holda ularni tekshirish nazarotdan o'tqizish orqali sertifikatlash xam jahon bozoridagi o'rnimizni topishga juda kata zamin bo'la oladi. Hozirgi paytda jadal suratlarda rivojlanib borayotgan davlatlar qatoriga kirishimiz uchun esa bizga eng muhim ko'makchi bu hech qanday shubhasiz

yangicha innovatsiyalar,ohirgi markali nazorat qurilmalari ko`makchi bo`la olishi kundek ravshan. Sertifikatlashtirish tizimini yaratishning o`zi birdan-bir maqsad emasdir. Uning samarasi sertifikatlashtirilgan mahsulot ichki yoki tashqi bozorda sotilgandagina ko`rinadi. Shuning uchun mahsulot sertifikatlashtirishini kiritish samarasini baholash mahsulot sotilishidan olingan samara sotishni ta'minlash uchun qilingan xarajatlar X bilan solishtirilish orqaii amalga oshiriladi. Samara mezoni S sifatida samara S ning xarajatlar X ga nisbati qo'llanadi:

$$S=S1/X$$

O`zbekiston Respublikasida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish me`yoriy negizini ISOning 9000-seriyali xalqaro standartlari va O`zRM ST ning rahbariy hujjatlari majmui tashkil qiladi. ISO ning 9000-seriyali standartlar nomi: ISO-9000. Sifat umumiy boshqaruvi va sifatni ta`minlovchi standartlar. Tanlash va qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar. ISO-9001. Sifat tizimi. Loyihalash yoki ishlab chiqish. ishlab chiqarish, montaj va xizmat qilishda sifatni ta'minlash modeli. ISO-9002. Sifat tizimi. Ishlab chiqarish va montaj paytida sifatni ta`minlash modeli.Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO fan va texnologiya rivojlanishining yangi istiqbolli yo`nalishlarida standartlarga bo`lgan ehtiyojni o`rganmoqda.Strategik rivojlanish rejalari doirasida standartlashtirish bo`yicha ko`plab innovatsion tarmoqlar va hayotni ta`minlash tarmoqlarini qamrab oluvchi yangi texniik va loyiha qo`mitalari tashkil etish rejalashtirilgan.Oxirgi yillarda ISO/TS229“Nanotexnologiyalar”,ISO/TS 276 “Biotexnologiyalar”,ISO/TS 279 “Innovatsion :o`zaro ta`sir,vositalar va usullar”,ISO/TS 268“Jamiyatning barqaror rivojlanishi”standartlari yaratildi.Yuqoridagi standartlar, tizimlar va standartlar to`plami bevosita innovatsiyalar uchun ishlaydi va innovatsiyalarni boshqarish tizimini yaratishda hisobga olinadi.

#### Foydalanilgan adabyotlar:

1. Стандартизация как инструмент обеспечения инновационной деятельности  
URL: <http://www.est-cert.ru/info/articles/standartizacia>
2. Никаноров П. Стандартизация в области менеджмента инновации // Стандарты и качество № 12 (954) 2016 г. –С.36-3982
3. Аронов, И. З. Роль стандартизации в развитии инновационных процессов / И.З.
4. Аронов, А. В. Зажигалкин, Л. Папич // Стандарты и качество. - 2016. - № 5 (947). - С. 20-24.
5. Белобрагин, В. Я. Основы стандартизации / В. Я. Белобрагин, А. В. Зажигалкин,Т. И.
6. Зворыкина. - М.: РИА «Стандарты и качество», 2017. - 516